


Volume II | Issue 1 | January | 2024

Journal of
RESEARCH
and **INNOVATIONS**

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ



ISSN: 2181-4058

Available online at www.imfaktor.com



ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 1-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-1

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-1

ТОШКЕНТ - 2024

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2024-1>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энуаровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

ESHBAYEVA Feruza Xolmuratovna

Angren Universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

Filologiya fanlari nomzodi

dotsent v/b

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578757>

HAMID OLIMJON ASARIDA ERK VA OZODLIK G‘OYALARINI KUURLANISHI

ANNOTATSIYA

Yurt ozodligi, farovonligi uchun kurashgan qahramonlarning jasorati tarixning o‘chmas sahifalariga bitilgan bo‘ladi. O‘zida erk va ozodlik g‘oyalari ifoda etgan “Muqanna” asari ham ikkinchi jahon urushi davrida yozilgan tarixiy dramadir. Unda arablar istilosiga qarshi kurashgan Muqanna va uning safdoshlari jasorati she‘riy ifodalarda tasvir etiladi. Mazkur maqola doirasida Hamid Olimjonning “Muqanna” tarixiy dramasi dagi obrazlarga tavsif berilib, asar g‘oyasi, muallif badiiy mahorati tadqiq etiladi. Shuningdek, asardagi erk va ozodlik g‘oyalari ifodalangan o‘rinlar tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: asar g‘oyasi, obraz, dramaturgiya, takrir san‘ati, xalq, ozodlik, vatanparvarlik, hurriyat, Muqanna, Guloyin.

ВОЛЯ И СВОБОДА В ТВОРЧЕСТВЕ ХАМИДА ОЛИМДЖАНА ИДЕИ ПЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Мужество героев, сражавшихся за свободу и благополучие страны, останется на неизгладимых страницах истории. Произведение «Муканна», выражающее идеи свободы и свободы, также является исторической драмой, написанной в годы Второй мировой войны. В нем поэтически описана храбрость Муканны и его товарищей, сражавшихся против арабского вторжения. В данной статье описываются персонажи исторической драмы Хаида Олимджана «Муканна», исследуется идея произведения, художественное мастерство автора. Также анализируются места, где в произведении выражаются идеи свободы воли и свободы.

Ключевые слова: идея произведения, образ, драматургия, искусство такрира, народ, свобода, патриотизм, Хуррият, Муканна, Гулоин.

WILL AND FREEDOM IN THE WORKS OF HAMID ALIMJAN SINGING IDEAS

ANNOTATION

The courage of the heroes who fought for the country's freedom and well-being will be written on the indelible pages of history. The work "Mukanna", which expresses the ideas of freedom and liberty, is also a historical drama written during the Second World War. In it, the bravery of Muqanna and his comrades who fought against the Arab invasion is described in poetic terms. This article describes the characters in the historical drama "Mukanna" by Hamid Olimjon, explores the idea of the work, the author's artistic skills. Also, the places where the ideas of free will and freedom are expressed in the work are analyzed.

Keywords: idea of the work, image, drama, takrir's art, people, freedom, patriotism, Hurriyat, Mukanna, Guloin.

O‘zbek she‘riyatining yorqin vakili Hamid Olimjon o‘zidan juda boy adabiy meros qoldirgan ijodkordir. Uning asarlari orasida “Muqanna” tarixiy dramasi alohida o‘rin egallaydi. Asar o‘n bir bo‘g‘inli she‘riy vaznda yozilgan bo‘lib, 4 parda 8 ko‘rinishdan iborat. Asar voqealari VIII asr ikkinchi yarmidagi davrni o‘z ichiga olib, unda arablar istilosiga uchragan Movoraunnahr hayoti yoritiladi. Dramada zo‘rluk bilan musulmon diniga o‘tkazilayotgan xalqning Muqanna boshchiligida zulm va erksizlikka qarshi olib borgan kurashi ta‘sirchan ifodalarda aks ettiriladi.

“Muqanna” dramasi urush yillarida yozish ijodkordan o‘n uch asr muqaddam bo‘lib o‘tgan xalq ozodlik harakatiga shu davr nuqtayi nazaridan qarashni, davr g‘oyalari va ma‘naviy ehtiyojlarini e‘tiborga olishni talab etdi. Shoir, eng avvalo, Vatan ozodligi yo‘lida kurashgan va shu kurashda qurbon bo‘lgan Muqanna va safdoshlarining qahramonona obrazlarini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Hamid Olimjon tarixiy haqiqatga asoslanib, asarga Muqannadan tashqari G‘irdak, Bog‘iy, Xishriy, Hakim, Kulartagin kabi tarixiy shaxslar obrazlarini olib kiradi. Shuningdek, dramada Otash, Gulobod va Guloyin singari to‘qima obrazlar ham mavjud bo‘lib, ular asar g‘oyasini ifoda etishga ko‘maklashadi.

“Muqanna” dramasiidagi Guloyin siyosida yorug‘ orzu va intilishlar bilan yashayotgan erkka tashna go‘zal qiz obrazi ifodalanadi. Asarda Guloyinning: “Ixtiyorni bersang agar menga sen, Ozodlikka topinardim yolg‘iz men” [1], – deya aytgan so‘zlaridan, uning yolg‘iz maqsadi hurriyat orzusi ekanligi anglashiladi. Guloyin bu maqsad yo‘lida intiladi va yovga qarshi qo‘liga qurol oladi. Zulm-u zo‘ravonlikka qarshi olib borilgan kurashlardan birida Guloyin halok bo‘ladi. Uning o‘limi oldidan Muqannaga aytgan quyidagi so‘zlari ham o‘z elini ozod ko‘rish orzusida bo‘lgan jasur qizning umid-istaklarini namoyon etadi:

*Armonim shu: ko‘rolmadim elni shod,
Ko‘rolmadim Vatanni yovdan ozod.
Tez to‘kildi mening bir kosa qonim,
Yuragimda qoldi barcha armonim.
Bitta qo‘ymay yovlarning ko‘zini o‘y,
Otam bilan onamga salom deb qo‘y!” [2]*

Guloyindagi yigitlarga xos bu mardonavorlik muallifning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonidagi Oygul obrazini eslatadi. Oygul ham o‘z yurtini zolim xondan qutqarish uchun qo‘shin to‘plab jang qiladi va xalqini ozod qiladi. Hamid Olimjon bu obrazlar orqali o‘zbek xotin-qizlaridagi vatanparvarlik, jasorat va matonat kabi ulug‘vor sifatlarni ko‘rsatib beradi.

Dramaning bosh qahramoni Muqanna siymosida zulmga, erksizlikka va haqsizlikka qarshi mardonavor kurasha oladigan xaloskor, o'z ortidan xalqini ergashtira oladigan kuchli notiq obrazi tasvirlanadi. Uning o'z yurtiga sadoqati, muhabbati jang paytida dushman g'alaba qozonayotgan vaqtda bilinadi. Muqanna Hakim tomonidan aytilgan o'z joningni qutqar, qoch qabilidagi aytgan gaplariga javoban shunday deydi:

*“Mening onam shu tuproqda tug‘ilgan,
Bobolarim shu tuproqqa ko‘milgan.
Shu tuproqda kindigimning qoni bor,
Shu tuproqda avlodimning qoni bor...
Yo‘q, aslo yo‘q. Bu aytganing men emas,
Jon saqlashga chaqirmagil meni, bas!
Bir boshimga yuz ming balo kelsa ham,
Shu tuproqdan siljimayman bir qadam” [3].*

Shu o'rinda muallifning "shu tuproqda" jumlasini mahorat bilan takrorlashi takrir san'atini yuzaga keltirgan. Asarda bu san'atdan ko'p foydalanilgan bo'lib, bu o'z navbatida, muallif badiiy niyatini yuzaga chiqarishga hamda misralar ohangdorligi va ta'sirchanligini oshirishga hissa qo'shgan. Muqannaning arab qo'mondoni Ibn Maozning elchisiga bergan quyidagi javobida ham takrir san'atining qo'llanilishi obraz xarakterini ochib berishga xizmat qilgan:

*Maozga ayt, qichqiribdi bemahal!
Maozga ayt, bu xalq taslim bo‘lmaydi!
Maozga ayt, bu xalq aslo o‘lmaydi!
Yana aytki, o‘lib ham sob bo‘lmaydi,
Yana aytki, kurashib jangda o‘lmak,
Maoz bilan yashashdan afzal beshak.*

Muqanna xalq ommasiga qanday so'zlar bilan murojaat etmasin, uning asosiy maqsadi yurtga bosib kelgan, o'z dinini zo'rlab o'tkazmoqchi bo'lgan bosqinchilarga qarshi kurash, xalq va mamlakatni qullikdan ozod etish. Muqannaning asar so'ngida yaqinlariga qilgan murojaati avlodlarga qoldirgan vasiyatidek jaranglaydi:

*“Xalqqa ayting, men aslo o‘lganim yo‘q,
Yov qo‘liga taslim ham bo‘lganim yo‘q.
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman”.*

Hamid Olimjonning urush yillarida yozilgan hurriyatni madh etuvchi "Muqanna" dramasi o'zbek dramaturgiyasida katta voqea bo'ldi. Dramatik asarni she'riy shaklda yozish muallifdan katta poetik mahoratni talab etadi. Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi ana shunday katta san'atkorlik bilan yozilgan asardir.

IQTIBOSLAR. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Ҳамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами. 4-том – Т.: “Фан” нашриёти 1981.
2. Oygul bilan Baxtiyor: Dostonlar. – Т.: G ‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1999.
3. <https://www.google.uz/post/insho-hamid-olimjonning-muqanna-asari>.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 1-СОҢ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-1

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-1

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz